



UDK:811.111/811.512.133

Charos HAMRAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
E-mail: charosh13@gmail.com

QarDU professori, f.f.d G.Tojiyeva taqrizi asosida

SADOQAT KONSEPTI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI LISONIY TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Har bir tilning o'ziga xos semantik va pragmatik tizimi mavjud bo'lib, bu tizimda odamlarning dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyatlar va madaniyat o'z aksini topadi. Sadoqat — insonning biror g'oya, oila, do'stlik yoki tashkilotga nisbatan sodiqlik, o'z manfaatlarini kechirish va doimiylikni anglatuvchi muhim bir kontseptdir. Har bir til o'zining madaniy va tarixiy xususiyatlariga qarab, bu kontsepti turli shakllarda ifodalaydi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sadoqat kontseptining semantik va pragmatik jihatlari, ularning til tizimidagi o'rni va farqlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sadoqat, til va madaniyat, sodiqlik, vafodorlik, ijtimoiy qadriyatlar, lingvistik tahlil, semantika.

THE CONCEPT OF LOYALTY: ITS PLACE IN THE LINGUISTIC SYSTEM OF ENGLISH AND UZBEKISTAN

Annotatsiya

Each language has its own semantic and pragmatic system, which reflects people's worldview, social values, and culture. Loyalty is an important concept that refers to a person's loyalty to an idea, family, friendship, or organization, their self-interest, and their permanence. Each language expresses this concept in different ways, depending on its cultural and historical characteristics. This article analyzes the semantic and pragmatic aspects of the concept of loyalty in English and Uzbek, their place in the language system, and their differences.

Key words: Loyalty, language and culture, loyalty, fidelity, social values, linguistic analysis, semantics.

КОНЦЕПЦИЯ ЛОЯЛЬНОСТИ: ЕЕ МЕСТО В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА И УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

У каждого языка существует своя уникальная семантическая и прагматическая система, в которой отражаются мировоззрение народа, социальные ценности и культура. Верность (преданность) — это важный концепт, обозначающий приверженность человека к определённой идее, семье, дружбе или организации, готовность жертвовать своими интересами и сохранять постоянство. Каждый язык выражает данный концепт по-разному в зависимости от своих культурных и исторических особенностей. В данной статье анализируются семантические и прагматические аспекты концепта верности в английском и узбекском языках, а также его место и отличительные черты в языковых системах.

Ключевые слова: Лояльность, язык и культура, преданность, верность, социальные ценности, лингвистический анализ, семантика.

Kirish. Til insoniyat tafakkuri va madaniyatining asosiy ko'zgusidir. Unda xalqning ijtimoiy qadriyatlari, hissiyati va hayot tarzi mujassam bo'ladi. Har bir til ma'lum konseptlarni o'zida aks ettiradi, ular orqali insonlar atrof-muhitni idrok qiladi va u bilan muloqot qiladi. Shu nuqtayi nazardan "sadoqat" (loyalty) konsepti — shaxsning oilasiga, do'stlariga, davlatiga yoki tashkilotga sodiqligini ifodalovchi ijtimoiy-axloqiy tushuncha sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

SADOQAT [a. صداقات — do'stlik, birdamlik; samimiylik] 1 Chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlik. O'g'lon, oqil ham mard bo'lgan, Mardlik — elga sadoqat. E. Vohidov, Nido. Gulnor chuqur sadoqat ifoda etgan ko'zlari bilan yigitga qaradi.. Oybek, Tanlangan asarlar[1].

Loyalty (sadoqat) — axloqiy-etik qiymat sifatida insonda kam uchraydigan fazilatlardan biri bo'lib, o'z oilasiga, do'stlariga, ishiga, mamlakatiga bo'lgan his-tuyg'ular va munosabatlarda o'zgaruvchanlikka ega emasligini, qarorlar va harakatlarda qat'iyatlikni anglatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi paytlarda LOYALTY konseptiga ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ushbu konseptni Rossiya lingvistikasi doirasida O.V. Yanova (2005), L.R. Lavrent'eva (2006), L.A. Xarlamova (2006), N.V.

Savartseva (2007), S.V. Mandjiyeva (2010), T.M. Naumova (2011), Yu.A. Kuptsova (2012), N.G. Danilyan (2014), E.Yu. Golodova (2015), M.S. Golikova (2017) va boshqalar, xorijiy lingvistika doirasida esa M. Baron (1984), M.A. Foust (2012), J. Maes (2012), M. Mares (2018) va boshqalar o'rganishgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, konseptual tahlil metodlari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilidagi "sadoqat" so'zi asosan "sodiqlik", "ishonch", "vafo" kabi so'zlar bilan yaqin bog'liqdir. Bu so'z insonning o'z do'stlari, oila a'zolari, jamiyat yoki vataniga bo'lgan sodiqligini ifodalaydi. O'zbek madaniyatida sadoqat oilaviy qadriyatlar, do'stlik va insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat asosida shakllanadi[3].

Bundan tashqari, sadoqat o'zbek tilida ko'proq o'zgaralar bilan ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi, o'zaro ishonch va mas'uliyatni tasvirllovchi tushuncha sifatida qaraladi. Masalan, "sadoqatli do'st" yoki "sadoqatli oila a'zosi" kabi iboralar bu tushunchaning ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini tasvirlaydi.

Ingliz tilidagi "loyalty" so'zi ham sadoqatning asosiy tarjimasini sifatida ishlatiladi. Ammo ingliz tilida loyalty kengroq va murakkabroq semantik doiraga ega. Bu so'z shaxslar o'rtasidagi sodiqlikdan tashqari, brendga, tashkilotga yoki siyosiy g'oyalarga nisbatan ham ishlatiladi. Misol uchun, "brand loyalty" (brendga sadoqat) yoki "political loyalty" (siyosiy sadoqat) kabi ifodalar ingliz tilida keng qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, ingliz tilidagi "loyalty" tushunchasi nafaqat shaxsiy, balki iqtisodiy va siyosiy kontekstlarda ham qo'llaniladi [4].

Sadoqat (o'zbek tilida) yoki loyalty (ingliz tilida) konsepti tilshunoslikda ko'p jihatdan semantik va pragmatik o'lchamlarga ega. Semantik tahlil so'zning ma'no qatlamlarini, uning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini aniqlashni nazarda tutsa, pragmatik tahlil esa so'zning real muloqotdagi, o'zaro aloqalarda qanday ishlatilishi va tilning ijtimoiy kontekstida qanday vazifalarni bajarishini o'rganadi. "Sadoqat" konsepti nafaqat ma'naviy yoki ijtimoiy qadriyatlarni anglatadi, balki tilshunoslikda, uning ishlatilishi, yoritilishi va maqsadi asosida tilning ijtimoiy qatlamlarini ham aks ettiradi.

Pragmatik tahlilda sadoqat so'zi til orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqalar va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning bir shakli sifatida ko'riladi [5]. U o'zaro ishonch, vafo, mas'uliyat, va shaxsiy manfaatlariga nisbatan sodiqlikni ifodalaydi. "Sadoqat" so'zi ba'zan nafaqat insonlar o'rtasidagi emosional munosabatlarni ifodalash uchun, balki ma'lum bir guruhga yoki tashkilotga bo'lgan ijtimoiy mas'uliyatni aks ettirishda ham ishlatiladi [6].

O'zbek tilida sadoqat ko'proq o'zaro ishonch, oilaviy qadriyatlar, do'stlik va vatanparvarlik bilan bog'liq tushuncha sifatida ishlatiladi [7]. U ko'pincha ixtiyoriy va ruhiy sodiqlikni ifodalaydi. Masalan, oilaviy munosabatlarda sadoqat, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan vafosi va sodiqligini ifodalaydi. Do'stlikda esa sadoqat, bir-biriga qarshi hech qachon bo'lmaslik, qo'llab-quvvatlash va tushunishni anglatadi. Bunday kontekstda sadoqat shaxsiy mas'uliyatni, o'zaro yordamni va ustuvor qadriyatlarni anglatadi.

Sadoqat shaxsning ijtimoiy roli va mas'uliyatini ifodalashda ishlatiladi. Masalan, "sadoqatli ona", "sadoqatli do'st" kabi iboralar, odatda, insonning muayyan vazifani bajarishdagi vafodorligini va ayni vaqtda o'zaro mehri-muhabbatni ta'kidlaydi. O'zbek tilida sadoqatga oid iboralar ko'pincha pozitiv pragmatik qiymatga ega bo'lib, ularning ko'pini ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga olish sifatida ko'rish mumkin.

Ingliz tilidagi loyalty so'zi ko'proq iqtisodiy, siyosiy va biznes kontekstlarida qo'llaniladi. Ingliz tilida loyalty so'zi, ayniqsa, brendga, tashkilotga yoki siyosiy tizimga bo'lgan sodiqlikni ifodalash uchun keng ishlatiladi. Bunday ishlatilishda, loyalty ko'proq shaxsning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini bilan bog'liq bo'ladi Ingliz tilida "loyalty" konsepti ancha keng ko'lamli semantik sohani qamrab oladi. U nafaqat shaxsiy sodiqlik, balki siyosiy, iqtisodiy va brendga nisbatan ishonchni ham bildiradi. Masalan: brand loyalty, customer loyalty, political loyalty kabi iboralar bu tushunchaning utilitar yo'nalishini ko'rsatadi [8]. Pragmatik jihatdan, "loyalty" ko'pincha tanlov erkinligi, manfaatlar va ijtimoiy tizimlarga sodiqlikni bildiradi [9].

Masalan, "brand loyalty" (brendga sadoqat) yoki "political loyalty" (siyosiy sadoqat) kabi iboralar, odamlarning o'zining iqtisodiy yoki siyosiy foydalari asosida o'z sodiqligini namoyon etishini ko'rsatadi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, ingliz tilidagi "loyalty" so'zi shaxsning faqat his-tuyg'ulari yoki mas'uliyatini emas, balki uning shaxsiy manfaatlarini anglatadi. Misol uchun, biror kompaniyaga bo'lgan sadoqat, faqatgina kompaniya bilan ijtimoiy aloqalar asosida bo'lmasdan, balki u bilan

bog'liq iqtisodiy foyda, imtiyozlar yoki shartnoma shartlari bilan ham bog'liqdir. Shuningdek, ingliz tilida siyosiy sadoqat ko'pincha shaxsning davlat yoki siyosiy tizimga bo'lgan sodiqligini, lekin ko'pincha tizimdan kutilgan foyda, resurslar yoki siyosiy istiqbol bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi pragmatik tafovutlar sadoqatning ma'nosini va ishlatilishini tushunishda muhimdir. O'zbek tilida sadoqatning individual va ijtimoiy qiymati yuqori bo'lib, shaxsning oila va do'stlariga nisbatan sodiqligi ko'proq ma'naviy va ruhiy ahamiyatga ega. Buning o'zi, o'zbek madaniyatidagi ijtimoiy tuzumning va qadriyatlarning shakllanishiga bog'liq bo'lib, ko'pincha oila, do'stlik va vatanparvarlik kabi tushunchalar bilan bog'lanadi.

Ingliz tilida esa, loyalty so'zi ko'proq iqtisodiy va siyosiy kontekstlarda ishlatiladi [10]. Shaxslar o'z manfaatlarini ko'zlab, siyosiy partiyalarga, brendlarga yoki tashkilotlarga bo'lgan sadoqatlarini ko'rsatishadi. Bu, ingliz madaniyatida siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning muhimligi bilan bog'liq.

O'zbek va ingliz tillaridagi sadoqat konsepti o'rtasidagi farqlarni ko'rish uchun madaniyatlarni tahlil qilish zarur. O'zbek madaniyatida sadoqat odatda oila, do'stlik va jamiyatda o'zaro hurmat va mas'uliyatni ifodalaydi. O'zbek xalqining qadriyatlari oilaviy birlashish, yaqinlar bilan barqaror va uzluksiz aloqalarni shakllantirishni maqsad qilgan.

Ingliz madaniyatida esa sadoqat kengroq miqyosda, ko'pincha tashqi manfaatlar bilan bog'lanadi. Inglizlar uchun sadoqat nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki kompaniyalar, siyosiy partiyalar yoki iqtisodiy tizimlarga bo'lgan sodiqlikni anglatadi. Bu, ingliz madaniyatida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka katta e'tibor berilishining natijasi sifatida ko'riladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi sadoqat konseptining lisoniy tizimdagi o'rni ham farqlanadi. O'zbek tilida sadoqat ko'proq ijtimoiy va ma'naviy qatlamda ishlatiladi, unda oilaviy, do'stlik munosabatlari va vatanparvarlikni ifodalaydi. Ingliz tilida esa, loyalty so'zi biznes va siyosat kontekstlarida keng tarqalgan, bu tilning ko'proq pragmatik va amaliy foydalanishini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'zbek tilida sadoqat ko'proq semantik jihatdan shaxsiy his-tuyg'ular, ishonch va vafolarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ingliz tilida esa loyalty nafaqat his-tuyg'ularni, balki shaxsning o'z manfaatlariga bo'lgan bog'liqligini ifodalashda ham ishlatiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida sadoqat tushunchasi ko'proq ma'naviy-ruhiy, axloqiy va sotsiokulturologik konnotatsiyaga ega bo'lsa, ingliz tilida esa bu tushuncha funksional xususiyatlarga ega. O'zbek madaniyatida sadoqat jamiyat va jamoa qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, ingliz madaniyatida esa bu tushuncha individual tanlov va iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqdir [10].

Xulosa. Sadoqat konsepti pragmatik jihatdan ijtimoiy va iqtisodiy kontekstga qarab farqlanadi. O'zbek tilida sadoqat ko'proq o'zaro ishonch va mas'uliyatni, oilaviy va do'stlik aloqalaridagi sodiqlikni aks ettirsa, ingliz tilida loyalty so'zi ko'proq iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga asoslanadi. Har ikki tilda sadoqatning ijtimoiy vazifasi va ahamiyati mavjud bo'lsa-da, uning qo'llanilish doirasi va pragmatik xususiyatlari farq qiladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi "sadoqat" konseptining lingvistik tahlili, bu tushunchaning har ikki tildagi o'rni va ahamiyatini ochib beradi. O'zbek tilida "sadoqat" asosan ijtimoiy va oilaviy qadriyatlarni anglatgan holda, shaxsning o'z do'stlari, oila a'zolariga bo'lgan sodiqligini ta'kidlaydi. Ingliz tilida esa "loyalty" kengroq ma'noda ishlatiladi, nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki iqtisodiy va siyosiy kontekstlarni ham qamrab oladi (/m/lkmlk, l,;l;).

Bu farqlar tilshunoslikda madaniyatlararo tafovutlarni anglash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashda muhim o'rin tutadi. Sadoqatning ingliz va o'zbek tillaridagi tizimi, har

ikki madaniyatning o'ziga xos qadriyatlar va ijtimoiy tuzumlari bilan bevosita bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. – B. 488
2. Вилюнас В. Психология эмоций / В. Вилюнас. – СПб.: Питер, 2008. – 496 с., Baron M. The Moral Status of Loyalty / M. Baron. // Dubuque, Iowa: Ken dal/Hunt Publishing Company. – 1984. – 36 p.
3. Абдулкадырова А.Б. Ценностный концепт LOYALTY/ПРЕДАННОСТЬ в английской и русской лингвокультурах (на материале современных медиатекстов) / А.Б. Абдулкадырова. // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов, 2022а. – Т. 15. – Выпуск 9. – С. 2972–2978.
4. Гофман М. Цена успеха / М. Гофман // Человек и труд. – 2011. – № 6. – С. 69–72.
5. Bahodirovna, B. G. (2023). Kashtachilik leksikasining leksik-semantik tasnifi. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 222-226.
6. Xamidova, N. (2021). Sadoqat tushunchasining lingvokulturologik xususiyatlari. Til va Adabiyot, 4(2), 67–74.
7. Karimov, O. (2019). "Sodiqlik" konsepti va uning lisoniy ifodasi. Filologiya Masalalari, 3(1), 112–118.
8. Aaker, D. A. (1991). Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. New York: Free Press.
9. Oliver, R. L. (1999). Whence Consumer Loyalty? Journal of Marketing, 63(Special Issue), 33–44.
10. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press.
11. Oxford English Dictionary Online. (2024). Entry: "Loyalty". Retrieved from <https://www.oed.com>
12. BAHODIROVA, G. (2024). Zamonaviy terminologiyada ilmiy termin va kasb-hunar termini tushunchalari talqini muammolari. News of the NUUZ, 1(1.10), 228-231.
13. Hamrayeva Charos Norboyevna, . (2024). The importance of studying the concept of "sadoqat" (loyalty) from a linguistic and cultural perspective. American Journal of Philological Sciences, 4(06), 127–130. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue06-25>
14. Bakhodirovna, Bakhodirova Gulruh. "The role of sectoral lexis in the development of the formal language." (2022).
15. Bahodirovna, B. G. (2021). Anthropocen-tric Dictionaries and Problems of Classifica-tion. In Online Conferences" Platform (pp. 59-61).